

**Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта
махсус таълим вазирлиги
Бухоро давлат университети**



**Тил, адабиёт, таржима, адабий танқидчилик халқаро
илмий форуми: замонавий ёндашувлар ва
истикболлар**

**мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман
материаллари
ТЎПЛАМИ**

Бухоро - 2021

Sattorova Sitora, Zaripova Sohiba. THE ANALYSIS OF METAPHORS IN "JANE EYRE" BY CHARLOTTE BRONTE	38888
Ubaydullayeva Feruza. APPRECIATING MOTHER TONGUE IN ALPHONSE DAUDET'S STORY	39090
Bakayeva Muhabbat, Radjabova Madina. ROY KESEYNING "KUTISH NIKOYASINING O'ZBEKCHA TARJIMASIDA ZAMON VA MAKON IFODASI..."	394
Каххорова Гулрух. ЮКЛАМАЛАРНИНГ ТАРЖИМА ЛУФАТЛАРИДА БЕРИЛИШИ	399
Nodira Rozikovna Kurbonova. ANALYSIS OF SETTING IN "EMMA" BY JANE AUSTEN	403
Qudratova Muborak. SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA ARBAIN AN'ANASI ...	406
Nasima Saidburxonovna Qodirova. ЯНГИ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ ИБРОҲИМ ҲАҚҚУЛОВ ТАҲЛИЛИДА	409
Очилов Нодирбек. Оскар Уайльднинг "Дориан Грей сурати" ("The Picture of Dorian Gray") асарида эстетик оқим тамойиллари инъикоси	413
Хазраткулиён Дилшоди Фарходзот. SAMARQAND ADABIY MUHITIDA TOJIK YOSH AVLOD SHE'RIYATINING RIVOJLANISHI	417
Улугбек Очилов. Теодор Драйзернинг "Бахтиқаро Керри" асаридаги такрорлар таснифи ва уларнинг матнда бажарган вазифалари	419
Sh.D. Xolova. A.NAVOIY G'AZALLARINING FRANSUZ TILIDAGI TARJIMASIDA FRAZEOLGIK BIRLIKLAR IFODASI	422
Зоирова Малика. ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМАТИКА В СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЕ (НА МАТЕРИАЛЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ М.БУТОВА «СВОБОДА» И М.ПАЛЕЙ «ЕВГЕША И АННУШКА»)	425
Тагоева Ферузабону. СПЕЦИФИКА ПОСТМОДЕРНИЗМА В РОМАНЕ ВИКТОРА ПЕЛЕВИНА «ПОКОЛЕНИЕ П» («GENERATION П»)	431
Сафарова Ҳилола Охунжоновна.ГУЛЛАРИНГНИ АЙЛАДИ ЧЎП ҚАРҒА, БОЙҚУШ, ЗОҒ, ТИЛИМ..."	334
Kasimova Ramo Rakhmatulloevna, Ziyadullayeva Aziza Akmalovna. PROFESSIONAL SKILLS AND PSYCHOLOGY OF A TRANSLATOR.....	438
Tashpulatova Visola Ismatullaevna. Domestication and foreignization in translation.....	441
Махмудова Робиябону Фуркатовна. ПИСАТЕЛЬ, ПОСПЕВШИЙ БОЛЬ НАРОДА.....	444
Ikramova Aziza Aminovna Davranova Gulbahor Numondjonovna.INGLIZ ADABIYOTIDA YUJIN O'NIL VA UNING DRAMA YOZISH MAHORATI.....	448
Islamova Dinara Azamatovna, Saydazzamova Chamangul Olinjon qizi.Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi maqollarning leksik-semantik xususiyatlari.....	451
Sulaymonova Dilnoz Xanjayevna. INGLIZ ROMANTIZM ADABIYOTIGA XOS XUSUSIYATLAR.....	453
Кодыров А.А. Нигматова Л.Х. ТИПЫ ЛЕКСИКО-ГРАММАТИЧЕСКИХ	

THE ANALYSIS OF METAPHORS IN "JANE EYRE" BY CHARLOTTE BRONTE

Sattorova Sitora
BDU, Adabiyotshunoslik (ingliz) yo'nalishi 1-kurs talabasi
Zaripova Sohiba
Ingliz Adabiyotshunosligi kafedrası o'qituvchisi

Abstract: This article deals with the poets and writers who made a significant contribution to the development, trends and development of English literature in the last century. In addition, the role of Charlotte Bronte in the study of English literature, the scope of topics in "Jane Eyre" and their importance are highlighted. In addition, issues such as the use of stylistic devices in the works and their function are covered. Along with the type of stylistic means, the metaphors used in the work and their analysis are given.

Keywords: stylistic devices, lexico-semantic means, metaphor, metonymy

Kirish: Sharlotta Bronte atoqli ingliz yozuvchisi hamda shoirasi, o'smirlik chog'idayoq dadil qadamlar bilan kirib kelib, ingliz adabiyotida yaratgan durdona romanlari tufayli dovuq qozongan mashhur opa-singil Brontelarning eng to'ng'ichidir. Sharlotta Brontening "Kurrer Bell" taxullusi ostida yaratgan durdona asarlari yozuvchi nomini butun dunyoga tanitgan shoh asarlar bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sharlotta Bronte Mariya Bronte hamda Patrik Brontening uchinchi farzandi bo'lib, 1816-yil avgust oyida Yorkshirning g'arbiy qismidagi Brandford shahrining g'arbiy qismida joylashgan Torton shahrida tavallud topgan. 1820-yil uning oilasi bir necha mil narida joylashgan Havort qishlog'iga ko'chib boradi

1831-1832-yillarda Sharlotta Bronte uchun juda omadli yillar bo'ldi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki u o'qishini Mirfildda joylashgan mashhur Roe Head oliygohida davom ettirdi. Bu davr uning hayoti uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi desak yanglishmagan bo'lamiz. Bu yerda Sharlotta o'zining bir umrlik qadrdon do'stlari: Ellen Nusser hamda Marry Taylor bilan tanishadi.

1839-yildan boshlab, Sharlotta Yorkshirdagi oilalarda tarbiyachi bo'lib ishlay boshladi. Bu faoliyatini 1941-yilgacha davom ettirdi. 1939-yilda Sharlotta itoatsiz va quloqsiz bir bolani tarbiyalashga muvofaq bo'ladi. Bu bola bilan juda qattiq shug'illangani tufayli bola juda aqli va bilimli bo'ladi. Bu voqeadan ilhomlangan Sharlotta o'zining "Jeyn Eyr" asarini yozishni boshlaydi.

Asosiy qism: "Jeyn Eyr" Sharlotta Brontening durdona asarlaridan biri bo'lib, bu asar 1817-yil London shahrida, Smith, Elder hamda Kolar tomonidan chop etilgan. Bu asar "Kurrer Bell" taxullusi ostida dunyo yuzini ko'rdi. "Jeyn Eyr" asarida, ayniqsa, qahramonlarning ruhiy kechinmalari va iztiroblari yorqin bo'yoqlarda ifoda etilgan. Shuningdek, Jeynning o'smirlik yillari va janob Rojesterga bo'lgan go'zal muhabbati ham juda rangli tasvirlangan. Harakatlarning uyg'unligida, asaming kulminatsiyasida Jeynning asta-sekinlik bilan bo'y ko'rsatgan ma'naviy va ruhiy ta'sirchanligi, iztiroblari va kechinmalari asosiy o'rinni egallaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Asarda tasvirlangan har bir voqealar rivoji insonni o'ziga bevosita jalb qiladigan suratda namoyon bo'ladi.

[1] "Jeyn Eyr" asari badiiy asar yozish san'atiga sezilarli burilish hosil qildi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu asarda har bir qahramonning o'y-xayollari, iztiroblari, xursandchiliklari, yutuqlari va muhabbati yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan bo'lib, kitobxonlarni bevosita jalb qilmay qolmaydi.

Stilistika tilshunoslikning ajralmas qismi bo'lib, u badiiy nutqning ifodalashning uslublari, ularning ta'sirchanligi va umuman inson nutqini o'rganadigan fandır. Stilistikada biz lug'at tarkibi tasnifi, tilning uslubiy ifodalash vositalari, leksik uslubiy vositalar va usullar, ayrim xususiyatlarni kuchaytirishga asoslangan uslubiy vositalar, frazeologizmlarning uslubiy ifodalanishi, sintaktik badiiy tasvir vositalari, fonetik uslubiy vositalarni o'rganamiz. Biz bilamizki, ma'no ikki xil leksik ma'no, ya'ni lug'aviy va matniy ma'nolarning o'zaro munosabatidan paydo bo'ladi. Ba'zan ular orasidagi farq juda katta bo'ladi va shunday hosila ma'nolarning qo'llanishidan kutilmagan hodisa paydo bo'ladi. Bu holda biz stilistik usul paydo bo'lganligini sezamiz. Stilistik maqsadda qo'llaniladigan ma'nolarning orasidagi o'zaro munosabatni quyidagi hollarga bo'lish mumkin: 1) So'zlar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan munosabatga ko'ra (Istiora); 2) Tushunchalar o'rtasidagi yaqinlikka, bir-biriga aloqadorlikka asoslangan munosabatga ko'ra (Metonimiya); 3) So'zlarning to'g'ri va teskari (zid) ma'nosiga asoslangan munosabat (Kinoya)[2]. Kuxarenko leksik-stilistik vositalarga: Metafora (metaphor), Metonimiya (metonymy), Sinekdoxa (synechdoche), So'z o'yini (play on words), Irony (kinoya), Epithet(epitet), Giperbola (hyperbole), Tag ma'no (understatement) va Oksimoron (oxymoron)larni kiritgan.

Leksiko-semantik stilistik vositalar orasida keng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri bu-metaforadir. Metafora bir predmet nomining boshqa predmet nomiga ular o'rtasidagi ma'lum o'xshashlik asosida ko'chirishdir. Biz asardagi metaforalarni tahlil qilishga kirishar ekanmiz, asarda metaforaning o'rni naqadar beqiyos va jozibador ekanligini angladik. Masalan:

"A bed supported on massive pillars of mahogany, hung with curtains of deep red damask, stood out like a tabernacle in the centre; the two larger windows, with their blinds always drawn down, were half shrouded in festooned and falls of similar drapery; the carpet was red; the table at the foot of the bed was covered with a crimson cloth; the walls were a soft fawn colour with brush of pink in it; the wardrobe, the toilet-table, the chairs were of darkly polished old mahogany." [3]

Bu gapda metaforaning go'zal va beqiyos namunasiga guvoh bo'lamiz. Bu yerda Getshaedholdagi katta mehmonxona tasvirlangan bo'lib, xonaning markazida turgan mebelidagi katta-katta suyanchiqlar "yahudiylar ibodatxonasi"ga o'xshatilgan.

"Mrs. Reed probably considered she had kept this promise; and so she had, I dare say, as well as her nature would permit her; but how could she really like an interloper not of her race, and unconnected with her, after her husband's death, by any tie?"

Bu yerda miss Redning o'zgalaming ishiga aralashib yurishi haqida gap ketyapti va u har doim "o'zgalarni ishiga bumini suqadigan kishi"ga o'xshatilgan.

Sometimes, preoccupied with her work, she sang the refrain very low, very lingeringly; 'A long time ago', came out like the saddest cadence of a funeral hymn.

Bu yerda Jeynning g'amgin holati qo'shiq ohangiga jo bo'lgan bo'lib, bu qo'shiqning ohangi "dafn marosimida kuylanadigan marsiyaning eng g'amgin ritmi"ga o'xshatilgan. I heard him in blubbering tone commence the tale of how 'the nasty Jayn Eyre' had flown at him like mad cat; he was stopped rather harshly.

Bu yerda Jeynning amakivachasining yoqimsiz baqirganini "ahmoq mushuk"ka o'xshatilgan.

"When it subsided, I saw them all drawn up in four semicircles, before four chairs, placed at the four tables; all held books in their hands, and a great book, like a Bible, lay on each table, before the vacant seat."

Bu yerda Lovud maktabidagi sinfxonalardan biri tasvirlangan bo'lib, u yerdagi kitob javonida turgan katta kitobni Jeyn Eyr "Bibliya"ga o'xshatadi.

"He scrutinised the reverse of these living medals some five minutes, then pronounced sentence. These words fell like knell of doom." [4]

Bu yerda e'tibor berib qaraydigan bo'lsak, Loved maktabining boshqaruvchisi janob Broklehurstning nutqi bayon etilgan. Bunda uning so'zlari "biror falokat bo'lishining xonush belgi"ga o'xshatilgan.

Xulosa: "Jeyn Eyr" romanida ketirilgan lmetaforalarni tahlil qilish jarayonida, shunga amin bo'ldikki, asarda eng ko'p qo'llangan stilistik vosita bu- metaforadir. Metafora asarning uslubiy bo'yoqdorlik saviyasini yanada oshirishga benihoya xizmat qilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, asarda boshqa stilistik vositalardan ham mohirona foydalanilgan bo'lib, obrazlar yaratishda ulning ichki kechinmlari hamda o'y fikrlarini mohirona yoritib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bode C. Highlights of American Literature- United States information Agency, Washington.DC, 1998
2. Clare Boylan. The life of Charlotte Bronte. London, 2003.
3. Elizabeth Gaskell. The life of Charlotte Bronte. London, 1857.
4. Jumayeva S. Adabiyotshunoslik asoslari. Navoiy, 2008.
5. Robert. P. L. A companion to American fiction. New York, 1912.
6. Галперин И.П. Stylistics/Стилистика английского языка. Высшая школа, 1977
7. Sharlotte Bronte "Jeyne Eyre" London, 1847
8. www.biography.com
9. www.celebrities.com
10. www.enotes.com